Mamadiyev Elyor Akmalovich, Sharipov K. A.	
КОРПОРАТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ В АВТОМОБИЛЬНОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА: СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РОСТА И СОБЛЮДЕНИЯ РЕГУЛЯТОРНЫХ ТРЕБОВАНИЙ	1427
Шамсуддинов Шухрат Нематович	
ПУТИ ВНЕДРЕНИЯ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	1431
U. D. Gayratov	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASIGA BO'LGAN EHTIYOJ VA ZARURIYAT: UNING AHAMIYATI.....	1435
Sh.N.G'afforov	
MEHNAT RESURSLARINI BOSHQARISH VA UNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1439
Uzoqov Lutfillon Fayzullojonovich	
DAVLAT TOMONIDAN IQTISODIY NAZORATNING BOZOR BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA GLOBAL AMALIYOT TAHLILI	1443
Rasulev Alisher Fayziyevich. Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TASHQI DAVLAT QARZINING VALYUTA TUZILMASI VA UNING QARZ BARQARORLIGIGA TA'SIRI TAHLILI	1446
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR ORQALI DAROMADLAR O'SISHINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1452
Eshbaeva Shahnoza Faxriddinova	
ЭКОНОМИКА УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ПРАКТИКА.....	1457
Рустамов Зокир Тоирович	
EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA AKT NING ROLI: RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR MISOLIDA	1461
Sadriddinov Ulug'bek Jaloliddin o'g'li	
ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПОТОКАМИ И ИМПОРТОМ В УЗБЕКИСТАНЕ	1467
Рустамов Фозилжон	
ICHKI BOZORDA PARRANDA GO'SHTI MAHSULOTINING NARX BARQARORLIGI VA KELGUSI TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH	1475
Jumayev Olimjon Sadulloevich	



TIBBIY XIZMAT INFRATUZILMASINING FARG'ONA IQTISODIY RAYONIDA JOYLASHUV XUSUSIYATLARI.....	1483
Xolmirzayeva Zulayxo Axmadjon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI BAHOLASH BO'YICHA METODOLOGIK YONDASHUVLAR ISHLAB CHIQISH.....	1488
Ibragimova Shaxlo Alimbayevna	
ENERGY TRANSITION DEBATE: ELECTRIC VEHICLES, OIL AND THE "GREEN" PARADOX.....	1492
Tokhirjonov Temurbek Alimardon ogli, Numonjon Malikov	
SANOATLASHUV NATIJASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AHOLI BANDLIGINING KAMAYISHI TAHLILI	1500
B.Beknazarov	
RESPUBLIKA TO'QIMACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA RIVOJLANISHI.....	1505
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
"YASHIL IQTISODIYOT" VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1510
Qurbonov Shovqi Djurayevich	
THE ROLE OF ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE COURSE OF ACUTE RHEUMATIC FEVER IN CHILDREN	1516
Kuldashev Sardor Furqatovich	
MOLIYAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHNING AXBOROT TIZIMI ASOSIDA MONITORING MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI	1520
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	1527
Sobirova Muxlisa	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ TUSHUMLARI VA TRANSFERTLAR NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1531
Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li	
BANK TIZIMI ORQALI YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISH: GREEN ADVISORY SERVICES XIZMATLARINING ZAMONAVIY AMALIYOTI.....	1537
Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi	
ISLOMIY MOLIYA VA RAQAMLI BANK EKOTIZIMLARINING INTEGRATSIYASINING O'ZBEKISTONDAGI ISTIQBOLLARI	1544
Galatov Abbos Alibekovich	
AGROSERVIS XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	1551
Abilov Feruz Nematullayevich	
TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI KREDITLARI AMALIYOTI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	1554
Jabbarov Nodir Umirovich	
OLIY TA'LIM MALAKALARINI XALQARO TAN OLIHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI: BOLONYA JARAYONI VA YUNESKO GLOBAL KONVENSIYASI QIYOSIY TAHLILI.....	1559
Saidov Muxammad Ali Hakimovich, Iminoxunov Abduqahhor Abduvohidovich	
IQTISODIY O'SISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR TAHLILI.....	1563
G'ulomjan Matkarimov	
O'ZBEKISTONDA MUZEY TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI.....	1568
Yulduz Urinbayeva	
DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR THE DIGITALIZATION OF TANGIBLE TECHNICAL ASSET INVENTORY IN THE DIGITAL ECONOMY.....	1573
Izzatilla Pulatov Quدراتillayevich	
THE IMPACT OF NATIONAL ECONOMY COMPETITIVENESS ON ECONOMIC GROWTH	1581
Siddikov Askar Axrorovich, Turapov Siroj Mamadoli o'g'li	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AGRAR SEKTORNI MOLIYALASHTIRISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH YO'NASHIHLARI	1585
Azizov Shuxrat Maxmutovich	
SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHGA QARATILGAN LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIK TAHLILI.....	1593
Rapiyev Alisher Parda o'g'li, Toshboyev Ikrom O'ktamovich	
MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SALOHİYATI AHAMIYATINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	1597
Madaminov Damir Abduraxmanovich	
АБСОРБЦИОННАЯ СПОСОБНОСТЬ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖСТРАНОВОГО АНАЛИЗА	1602
Султанова Л.Ш.	
KADRLAR MENEJMENTIDA MOTIVATSIYA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1607
Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI.....	1612
Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
"YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaocu, Уркинбаев Т. А.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В В2В- И В2С-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmurotov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakberganovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLOM BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	



O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI



Babaeva Nargiza Muzafarovna

Qo'qon davlat universiteti, prof.v.b. i.f.d. (DSc)
ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-5315-9942>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda investitsiya siyosatini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda investitsiya siyosatining mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni, so'nggi yillarda amalga oshirilgan institutsional va iqtisodiy islohotlar, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar dinamikasi statistik ma'lumotlar asosida o'rganilgan. Shuningdek, investitsiya muhitining mavjud muammolari va cheklovlari aniqlanib, investitsiya siyosatini sifat jihatidan takomillashtirishga qaratilgan amaliy takliflar ilgari surilgan. Tadqiqot natijalari investitsiya oqimlarining barqaror o'sishini ta'minlash, iqtisodiyotni diversifikatsiyalash hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega tarmoqlarni rivojlantirishda investitsiya siyosatining muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Maqola natijalari investitsiya siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Investitsiya siyosati; asosiy kapitalga investitsiyalar; to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar; investitsiya muhiti; institutsional islohotlar; iqtisodiy o'sish; investitsiya samaradorligi; davlat investitsiya dasturlari; iqtisodiy diversifikatsiya; hududiy rivojlanish; investitsion faollik.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the theoretical and practical aspects of improving investment policy in Uzbekistan. Based on statistical data, the study examines the role of investment policy in the country's economic development, the institutional and economic reforms implemented in recent years, as well as the dynamics of investments in fixed capital and foreign direct investment. In addition, existing problems and constraints of the investment climate are identified, and practical recommendations aimed at the qualitative improvement of investment policy are proposed. The research findings demonstrate that investment policy plays a crucial role in ensuring the sustainable growth of investment flows, diversifying the economy, and developing sectors with high value added. The conclusions obtained have scientific and practical significance for the process of designing and implementing investment policy.

Key words: investment policy; investments in fixed capital; foreign direct investment; investment climate; institutional reforms; economic growth; investment efficiency; state investment programs; economic diversification; regional development; investment activity.

Аннотация. В данной статье проводится комплексный анализ теоретических и практических аспектов совершенствования инвестиционной политики в Узбекистане. В исследовании на основе статистических данных рассматриваются роль инвестиционной политики в экономическом развитии страны, институциональные и экономические реформы, реализованные в последние годы, а также динамика инвестиций в основной капитал и прямых иностранных инвестиций. Кроме того, выявляются существующие проблемы и ограничения инвестиционного климата и выдвигаются практические предложения, направленные на качественное совершенствование инвестиционной политики. Результаты исследования показывают, что инвестиционная политика играет важную роль в обеспечении устойчивого роста инвестиционных потоков, диверсификации экономики и развитии отраслей с высокой добавленной стоимостью. Полученные выводы имеют научно-практическое значение для процесса разработки и реализации инвестиционной политики.

Ключевые слова: инвестиционная политика; инвестиции в основной капитал; прямые иностранные инвестиции; инвестиционный климат; институциональные реформы; экономический рост; эффективность инвестиций; государственные инвестиционные программы; экономическая диверсификация; региональное развитие; инвестиционная активность.



KIRISH

Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida investitsiya siyosati har bir davlatning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini belgilovchi eng muhim makroiqtisodiy instrumentlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, kapital harakatining erkinlashuvi, transmilliy kompaniyalar faoliyatining kengayishi hamda texnologik taraqqiyotning jadallashuvi sharoitida investitsiya oqimlari uchun raqobat keskinlashib, davlatlardan nafaqat qulay iqtisodiy shart-sharoitlar yaratishni, balki puxta o'ylangan, tizimli va uzoq muddatli investitsiya siyosatini shakllantirishni ham talab etmoqda. Aynan shu jihatdan investitsiya siyosati iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, ishlab chiqarish tuzilmasini modernizatsiya qilish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda aholi farovonligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda olib borilayotgan keng ko'lamlı iqtisodiy islohotlar doirasida investitsiya siyosatini takomillashtirish masalasi davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi [1]. Mamlakat iqtisodiyotining ochiqlik darajasini oshirish, xususiyl sektor rolini kuchaytirish, xorijiy investorlar uchun huquqiy va institutsional kafolatlarni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar investitsion muhitni tubdan yaxshilashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, investitsiya siyosatining samaradorligi faqat investitsiyalar hajmining oshishi bilan emas, balki ularning iqtisodiy tuzilma, hududlar va tarmoqlar bo'yicha oqilona taqsimlanishi hamda kutilgan ijtimoiy-iqtisodiy natijalarga erishish darajasi bilan belgilanadi.

Nazariyl jihatdan investitsiya siyosati davlat tomonidan investitsion jarayonlarni tartibga solish, rag'batlantirish va muvofiqlashtirishga qaratilgan iqtisodiy, huquqiy va tashkiliyl chora-tadbirlar majmuasi sifatida talqin qilinadi. Klassik va neoklassik iqtisodiy nazariyalarda investitsiyalar kapital jamg'arilishi va iqtisodiy o'sishning asosiy manbai sifatida qaralsa, institutsional iqtisodiyotda investitsiya siyosatining samaradorligi institutlar sifati, mulk huquqlarining himoyasi hamda davlat boshqaruvi samaradorligi bilan chambarchas bog'liql holda tahlil qilinadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda investitsiya siyosatini takomillashtirish faqat moliyaviyl resurslarni jalb qilish bilan cheklanmasdan, balki institutsional muhitni izchil rivojlantirishni ham taqozo etadi.

Amaliyl jihatdan O'zbekiston investitsiya siyosatining asosiy xususiyati davlatning iqtisodiy rivojlanishdagi faol roli bilan tavsiflanadi. Davlat investitsiya dasturlari orqali strategik ahamiyatga ega infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, sanoatni modernizatsiya qilish, energetika, transport, qurilish hamda ijtimoiyl sohalarda yirik loyihalarni amalga oshirish investitsiya faolligining barqarorligini ta'minlab kelmoqda [2]. Biroql bunday yondashuv investitsiyalarning samaradorligi, qaytimi va ularning iqtisodiyotga multiplikativ ta'siri masalalarini yanada chuqurroql tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu bilan birga, investitsiya siyosatini takomillashtirish jarayonida xorijiy investitsiyalarni jalb etish alohida ahamiyat kasb etadi, chunki to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar nafaqat moliyaviyl resurslar manbai, balki zamonaviyl texnologiyalar, innovatsion yechimlar, boshqaruv tajribasi hamda xalqaro bozorlar bilan integratsiyalashuv imkoniyatlarini ham ta'minlaydi. O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar oqimining ortishi kuzatilayotgan bo'lsa-da, ularning tarmoqlar bo'yicha notekis taqsimlanishi, ayrim hududlarda investitsiya faolligining pastligi hamda yuqori texnologiyali sohalarga investitsiyalar ulushining yetarli darajada emasligi investitsiya siyosatini yanada takomillashtirishni talab qilmoqda.

O'zbekistonda investitsiya siyosatini takomillashtirish masalasi ko'p qirrali va kompleks yondashuvni talab etuvchi muhim ilmiyl-amaliyl muammo bo'lib, u davlatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasi, sanoat siyosati, mintaqaviyl rivojlanish dasturlari hamda institutsional islohotlar bilan uzviyl bog'liql holda ko'rib chiqilishi lozim. Mazkur yo'nalishda olib boriladigan chuqur ilmiyl tadqiqotlar investitsiya siyosatining samaradorligini oshirish, iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, O'zbekistonda investitsiya siyosatini takomillashtirish yo'lida muayyan ijobiyl siljishlarga erishilgan bo'lsa-da, investitsion jarayonlarning samaradorligini cheklab kelayotgan qator tizimli muammolar va institutsional cheklovlar mavjud bo'lib, ular investitsiya siyosatini yanada chuqurlashtirish va modernizatsiya qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ushbu muammolarni kompleks tarzda tahlil qilish investitsiya siyosatini sifatl jihatidan yangi bosqichga olib chiqish uchun muhim ilmiyl-amaliyl ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiya siyosati masalalari xalqaro va milliy darajada keng o'rganilgan mavzulardan biri bo'lib, xalqaro tadqiqotlarda u asosan R. Solou va P. Romerning iqtisodiy o'sish nazariyalari [3], D. Nortning institutsional iqtisodiyot, institutlar sifati, mulk huquqlarining himoyasi va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlikni asoslovchi nazariyalari [4], shuningdek J. Danning va R. Vernonlarning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, OLI-paradigma hamda transmilliy korporatsiyalarning investitsiya qarorlariga ta'siri haqidagi nazariyalari [5] doirasida tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlarda investitsiya siyosatining samaradorligi ko'pincha institutlar sifati, regulyator muhitning barqarorligi va bashorat qilinishi, shuningdek investorlar huquqlarining himoyalani sh darajasi bilan chambarchas bog'liql ekani ta'kidlanadi.



Post-sovet makonidagi hamda iqtisodiy tizimi shakllanayotgan mamlakatlarga oid tadqiqotlar asosan davlatning investitsion jarayonlardagi rolini, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini va strategik tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash instrumentlarini o'rganishga qaratilgan. Rossiya, Qozog'iston va Sharqiy Yevropa olimlarining asarlarida investitsiya siyosati davlatning sanoat va tarkibiy siyosatining ajralmas elementi sifatida talqin qilinadi. Xususan, V.M. Polterovich sobiq sotsialistik mamlakatlarda iqtisodiy islohotlar jarayonida davlatning faol institutsional roli muhim ahamiyatga ega ekanini ilmiy asoslab beradi [6].

J.E. Stiglitz, J.Y. Lin va E. Patel esa davlatning investitsion jarayonlardagi rolini faqat bozor mexanizmlarini to'ldiruvchi subyekt sifatida emas, balki strategik yo'naltiruvchi kuch sifatida talqin qiladilar. Ularning fikricha, rivojlanayotgan va o'tish davridagi iqtisodiyotlar uchun davlat-xususiy sheriklik, selektiv sanoat va investitsiya siyosati hamda strategik tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash iqtisodiy modernizatsiyaning ajralmas sharti hisoblanadi [7].

O'zbekistonda investitsiya siyosatini o'rganish sohasida so'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlar soni sezilarli darajada oshdi. Mazkur ishlarda investitsiya muhitini yaxshilash masalalari [8], xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning huquqiy-me'yoriy asoslarini tahlil qilish, davlat investitsiya dasturlarining samaradorligini baholash [9], shuningdek hududiy investitsiya rivojlanishini institutsional yondashuv asosida o'rganish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [10]. Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, mavjud tadqiqotlarda makroiqtisodiy tahlil, institutsional yondashuv va amaliy natijalarni o'zaro uyg'unlashtirgan kompleks tadqiqotlar yetarli emas. Mazkur holat investitsiya siyosatini chuqurroq va tizimli o'rganishga qaratilgan integrativ ilmiy tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini umumiy ilmiy va maxsus iqtisodiy tahlil usullari tashkil etadi: tizimli va struktura-funksional yondashuvlar, solishtirma tahlil, iqtisodiy-statistik va dinamik tahlil usullari hamda institutsional tahlov elementlari. Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy statistikasi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi materiallari, normativ-huquqiy hujjatlar hamda xalqaro tashkilotlar hisobotlari foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonning investitsiya siyosati mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, xususiy sektorni faol rivojlantirish, tashqi investitsiyalarni jalb qilish hamda iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuasidir. Ushbu siyosat milliy va xalqaro miqyosda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish bilan bir qatorda, strategik sohalarga investitsiyalarni maqsadli yo'naltirishni ham nazarda tutadi. Investitsiya siyosati mamlakat uchun muhim makroiqtisodiy instrumentlardan biri bo'lib, u investorlar uchun qulay huquqiy va iqtisodiy muhitni shakllantirishga qaratilgan.


O'zbekiston Respublikasida 2019-yilda qabul qilingan "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonun davlat tomonidan investitsiya faoliyatini tartibga solish, ichki va xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlar yaratish hamda investitsiyalarning iqtisodiyotdagi rolini mustahkamlashga qaratilgan asosiy huquqiy hujjat hisoblanadi. Mazkur qonun investitsiya siyosatini mamlakat iqtisodiyotidagi ustuvor yo'nalishlarga muvofiq shakllantirish, investitsiya faoliyati uchun zarur huquqiy mexanizmlarni joriy etishni ko'zda tutadi [2].

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiy islohotlar dasturini izchil va jadal amalga oshirish orqali investitsiya muhitini yaxshilash borasida sezilarli natijalarga erishdi. Xususan, davlat tomonidan ma'muriy to'siqlarni qisqartirish, valyuta bozorini liberallashtirish, investorlar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish hamda xalqaro moliya institutlari va xorijiy hamkorlar bilan hamkorlikni kengaytirish yo'nalishlarida tizimli siyosat olib borilmoqda. Bu esa mamlakatning investitsiya jalb etish salohiyatini oshirmoqda.

2017-yildan boshlab amalga oshirilgan iqtisodiy liberalizatsiya va bozorga yo'naltirilgan islohotlar O'zbekistonni jahon bozoriga yanada ochish strategiyasiga olib chiqdi. Natijada xususiy sektorning iqtisodiyotdagi roli sezilarli darajada oshdi hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar joriy etildi.

So'nggi yillarda O'zbekiston investitsiya siyosati asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmining barqaror o'sishi, xususiy sektor ishtirokining kengayishi va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining ortishi bilan tavsiflanadi. Bu holat milliy iqtisodiyotning investitsion jozibadorligi sezilarli darajada yaxshilanganidan dalolat beradi (1-jadval).

Keltirilgan 1-rasm ma'lumotlari 2019-2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi barqaror va izchil o'sish tendensiyasiga ega ekanini yaqqol namoyon etadi.




1-rasm. O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning dinamikasi [11]

Tahlil qilinayotgan davrda investitsiyalar hajmi 2019-yildagi 195,9 trln so'mdan 2024-yilga kelib 493,7 trln so'mga yetgan bo'lib, bu qisqa vaqt oralig'ida qariyb 2,5 baravar o'sishni anglatadi. Mazkur holat investitsiya siyosatining faollashgani, davlat va xususiy sektor ishtirokining kengaygani hamda iqtisodiy islohotlarning investitsion jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatganini tasdiqlaydi.

Investitsiyalar o'sish sur'atlarining tahlili alohida ilmiy ahamiyatga ega. Xususan, 2019-yilda o'sish sur'ati 129,0 foizni tashkil etib, bu holat iqtisodiy liberallashtirish jarayonlarining jadallashuvi, tashqi iqtisodiy aloqalarning kengayishi va yirik investitsiya loyihalarining faol bosqichga o'tishi bilan izohlanadi. 2020-yilda ushbu ko'rsatkichning 103,1 foizgacha pasayishi global COVID-19 pandemiyasi bilan bog'liq iqtisodiy cheklavlar, tashqi moliyaviy oqimlarning qisqarishi hamda investitsiya faolligining vaqtincha susayishi bilan izohlanadi. Shunga qaramay, investitsiyalar hajmining mutlaq qiymatda o'sishda davom etgani investitsiya siyosatining nisbatan barqarorligini ko'rsatadi.

2021-2023-yillar davrida investitsiya faolligining qayta jadallashuvi kuzatiladi. Jumladan, 2021-yilda o'sish sur'ati 118,6 foizni tashkil etib, bu iqtisodiy faollikning tiklanishi, davlat investitsiya dasturlarining kengaytirilishi hamda xorijiy investitsiyalar oqimining ortishi bilan izohlanadi. 2022 va 2023-yillarda investitsiyalar hajmining mos ravishda 112,7 va 113,9 foizga oshishi investitsiya jarayonlarining barqaror davom etayotganini hamda iqtisodiyotda nisbatan muvozanatli o'sish bosqichiga o'tilayotganini ko'rsatadi.

2024-yilda investitsiyalar hajmining keskin oshib, 493,7 trln so'mga yetishi va o'sish sur'atining 160,5 foizni tashkil etishi alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu ko'rsatkich investitsiya siyosatining yangi bosqichga ko'tarilganini, yirik infratuzilma, sanoat va strategik loyihalarning keng ko'lamda amalga oshirilganini, shuningdek xorijiy investitsiyalar va kreditlar ulushining sezilarli darajada oshganini anglatadi.



2-rasm. O'sish tempi va investitsiyalarning YAIMdagi ulushi [11]



Investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ham investitsiya siyosati samaradorligini baholashda muhim indikator hisoblanadi. Xususan, 2019-yilda investitsiyalarning YAIMdagi ulushi 38,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda mazkur ko'rsatkich 36,2 foizgacha pasaygan. Biroq 2021-yildan boshlab ushbu ulush izchil o'sish trayektoriyasiga chiqib, 2023-yilda 41,2 foizga yetgani investitsiya faolligi iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biriga aylanganini ko'rsatadi. 2024-yil bo'yicha mazkur ko'rsatkich rasmiy ravishda e'lon qilinmagan bo'lsa-da, investitsiyalar hajmidagi keskin o'sish YAIM tarkibida investitsiyalarning ulushi yanada ortgan bo'lishi ehtimolini kuchaytiradi.

Umuman olganda, jadval ma'lumotlari O'zbekistonda so'nggi yillarda investitsiya siyosati miqdoriy jihatdan sezilarli darajada kengayganini, investitsiyalar iqtisodiy o'sish va tarkibiy modernizatsiyaning muhim manbaiga aylanganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, investitsiyalar hajmining tez sur'atlarda o'sishi ularning iqtisodiy samaradorligi, tarmoqlar va hududlar bo'yicha taqsimlanishi hamda uzoq muddatli qaytimi masalalariga yanada chuqurroq e'tibor qaratishni taqozo etadi. Bu holat investitsiya siyosatini keyingi bosqichda sifat jihatidan takomillashtirish zaruratini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Mazkur ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, investitsion faollik tashqi ta'sirlar va iqtisodiy shoklarga qaramasdan ijobiy dinamikani saqlab qolmoqda. Bu holat asosan davlatning investitsion jarayonlarni rag'batlantirishdagi faol roli hamda yirik infratuzilma va sanoat loyihalarining izchil amalga oshirilishi bilan izohlanadi.


Davlat investitsiya siyosatida xorijiy investitsiyalarni jalb etishga alohida e'tibor qaratilmoqda, chunki ular nafaqat moliyaviy resurslar manbai, balki zamonaviy texnologiyalar, ilg'or boshqaruv amaliyotlari va innovatsiyalarni transfer qilishning muhim kanali hisoblanadi. O'zbekistonda investitsiyalarni jalb etish maqsadida xorijiy hamkorlar bilan keng ko'lamlı iqtisodiy hamkorlik loyihalari yo'lga qo'yilgan. Hukumat tashqi moliya institutlari bilan hamkorlikda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, jumladan xalqaro kredit va grant mablag'larini jalb etishni faol amalga oshirmoqda.

O'zbekiston investitsiya siyosatida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Mazkur investitsiyalar, ayniqsa, energetika, infratuzilma, sanoat ishlab chiqarishi va innovatsiyalar kabi strategik sohalarga yo'naltirilmoqda. Hukumat tomonidan xalqaro siyosiy va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar mamlakatning investitsiya salohiyatini yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Kichik va o'rta biznes sohasidagi muammolarni bartaraf etish, ishbilarmonlik muhitini optimallashtirish hamda boshqa tarmoqlarda xorijiy investorlar uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan qonunchilik tashabbuslari O'zbekistonning jahon bozorida ishonchli va barqaror hamkor sifatida e'tirof etilishiga xizmat qilmoqda. Shuningdek, davlat tomonidan "bir darcha" tamoyili asosida xizmatlar ko'rsatish mexanizmlari joriy etilib, investorlarga hujjatlarni rasmiylashtirish, huquqlarini himoya qilish va ma'muriy jarayonlarda ko'maklashish bo'yicha kompleks xizmatlar taqdim etilmoqda. Bu esa investorlar uchun murojaat va faoliyat yuritish jarayonlarini sezilarli darajada soddalashtiradi.

O'zbekiston qonunchiligi investorlar uchun mustahkam huquqiy kafolatlar va imtiyozlarni ta'minlaydi. Xususan, investorlar investitsiyalar hajmi va turini mustaqil belgilash, o'z aktivlariga egalik qilish va ulardan foydalanish, shuningdek olingan daromadlarni erkin repatriatsiya qilish huquqiga ega bo'lib, mazkur huquqlar davlat tomonidan kafolatlangan [12].

Bundan tashqari, investorlarga nisbatan har qanday kamsitish va tarafkashlikka yo'l qo'yilmasligi, ularning huquqlarini himoya qilish va teng imkoniyatlar yaratish davlat siyosatining muhim tamoyillari sifatida qat'iy belgilangan.



3-rasm. O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TXI) oqimi [11]



Keltirilgan 2-rasm ma'lumotlari 2019–2023-yillar davomida O'zbekiston iqtisodiyotiga yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TXI) oqimi dinamikasining murakkab, biroq umumiy jihatdan ijobiy tendensiyaga ega ekanini ko'rsatadi. Tahlil qilinayotgan davr boshida, ya'ni 2019-yilda TXI hajmi 4,2 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan bo'lib, bu davrda investitsiya muhitini liberallashtirish, valyuta bozorini erkinlashtirish hamda xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlarni kuchaytirishga qaratilgan islohotlar xorijiy kapital oqimining nisbatan barqaror shakllanishiga xizmat qilganini ko'rsatadi.

2020-yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining 3,4 mlrd AQSH dollarigacha qisqarishi kuzatiladi. Bu holat, avvalo, COVID-19 pandemiyasi bilan bog'liq global iqtisodiy inqiroz, xalqaro kapital harakatining cheklanishi hamda investorlarning riskka bo'lgan munosabatining keskin ehtiyotkorlik tomonga o'zgarishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, TXI ulushining umumiy investitsiyalardagi salmog'ining 18,7 foizgacha pasayishi xorijiy investitsiyalarning ichki investitsion jarayonlarga nisbatan vaqtinchalik sustlashganini ko'rsatadi.

2021-yildan boshlab TXI oqimida tiklanish jarayoni kuzatiladi. Mazkur yilda xorijiy investitsiyalar hajmi 4,5 mlrd AQSH dollariga yetib, pandemiyadan keyingi iqtisodiy faollikning qayta tiklanishi, xalqaro hamkorlik aloqalarining bosqichma-bosqich jonlanishi hamda O'zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan islohotlarning izchil davom ettirilishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, TXI ulushining umumiy investitsiyalardagi salmog'i 20,4 foizni tashkil etib, xorijiy kapitalning investitsion jarayonlardagi roli asta-sekin mustahkamlanib borayotganini anglatadi.

Ayniqsa, 2022-2023-yillar davrida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining keskin oshgani e'tiborga loyiqdır. Xususan, 2022-yilda TXI hajmining 8,0 mlrd AQSH dollariga, 2023-yilda esa 8,8 mlrd AQSH dollariga yetishi O'zbekistonda investitsiya siyosatining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilganini ko'rsatadi. Ushbu davrda TXI ulushining umumiy investitsiyalardagi salmog'i mos ravishda 28,9 va 29,5 foizni tashkil etib, xorijiy investitsiyalar milliy investitsion jarayonlarning muhim tarkibiy qismiga aylanib borayotganini tasdiqlaydi.

Mazkur dinamik tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston iqtisodiyotida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar nafaqat miqdoriy jihatdan oshib bormoqda, balki ularning umumiy investitsiyalar tarkibidagi ulushi ham barqaror ravishda kengaymoqda. Biroq TXI oqimining o'sishi bilan bir qatorda, ularning tarmoqlar va hududlar bo'yicha notekis taqsimlanishi, asosan yirik infratuzilma va xomashyo yo'nalishlariga yo'naltirilayotgani, yuqori texnologiyali va innovatsion sohalarda xorijiy kapital ulushining nisbatan pastligi investitsiya siyosatini keyingi bosqichda sifat jihatidan takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Umuman olganda, keltirilgan ma'lumotlar O'zbekistonning xorijiy investitsiyalar uchun jozibadorligi oshib borayotganini ko'rsatsa-da, investitsiya siyosatini yanada takomillashtirish jarayonida xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi, texnologik transfer hamda mahalliy ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuv darajasiga alohida e'tibor qaratish muhim ilmiy-amaliy vazifa bo'lib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning investitsiya siyosati so'nggi yillarda faol transformatsiyalardan o'tib, ochiq, diversifikatsiyalangan hamda barqaror investitsion muhit yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarga yo'naltirilgan. Biroq, mazkur jarayonda muayyan institutsional va tarkibiy cheklovlar saqlanib qolmoqda. Ularni bartaraf etish uchun davlatning investitsion faoliyatni boshqarish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, investitsiya, sanoat va mintaqaviy siyosatlarni samarali muvofiqlashtirish hamda xalqaro tajribadan kengroq foydalanish zarur.

O'zbekistonda investitsiya siyosatini takomillashtirish jarayonida yuqorida tahlil qilingan institutsional, tarkibiy va moliyaviy cheklovlarni inobatga olgan holda, davlat tomonidan amalga oshiriladigan investitsiya choralari miqdoriy jihatdan kengaytirishdan ko'ra, ularning sifat jihatdan takomillashuviga ustuvor ahamiyat qaratilishi lozim. Shu nuqtai nazardan, investitsiya siyosatini yanada samarali va barqaror qilishga qaratilgan quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin.

Birinchiidan, investitsiya muhitining institutsional barqarorligini kuchaytirish zarur. Buning uchun normativ-huquqiy bazaning izchilligini ta'minlash, investorlar huquqlarini himoya qiluvchi mexanizmlarning amaliy ijrosini kuchaytirish hamda tartibga solish jarayonlarida prognoz qilinadiganlik darajasini oshirish lozim. Xususan, investitsiyaga oid qonun hujjatlariga kiritiladigan o'zgartirishlar bo'yicha oldindan e'lon qilinadigan "regulyator ta'sirini baholash" amaliyotini kengaytirish investorlar uchun noaniqlik darajasini kamaytirishga xizmat qiladi.

Ikkinchiidan, investitsiyalarning tarmoqlar va hududlar bo'yicha muvozanatli taqsimlanishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Buning uchun qayta ishlash sanoati, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish va innovatsion faoliyatni rag'batlantiruvchi selektiv qo'llab-quvvatlash choralari kuchaytirish zarur. Mazkur yo'nalishda soliq va bojxona imtiyozlari umumiy xarakterga ega bo'lishi emas, balki aniq iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlariga erishish sharti bilan taqdim etilishi investitsiya siyosatining natijadorligini oshiradi.

Uchinchiidan, davlat investitsiya dasturlarining samaradorligini oshirish maqsadida investitsiya loyihalarini tanlash va baholash jarayonlariga iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik ko'rsatkichlarini majburiy joriy etish lozim.



Har bir yirik investitsiya loyihasi bo'yicha kutilayotgan iqtisodiy qaytim, bandlikka ta'siri, hududiy rivojlanishga qo'shadigan hissasi hamda uzoq muddatli barqarorlik omillari kompleks tarzda baholanishi, loyiha amalga oshirilgandan so'ng esa natijalarni monitoring qilish mexanizmi yo'lga qo'yilishi zarur.

To'rtinchidan, xorijiy investitsiyalar sifatini oshirishga yo'naltirilgan siyosatni kuchaytirish talab etiladi. Bunda asosiy e'tibor xorijiy investitsiyalar hajmini ko'paytirishga emas, balki ularning texnologik darajasi, mahalliy ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi va bilimlar transferiga qo'shadigan hissasiga qaratilishi lozim. Shu maqsadda mahalliy korxonalar bilan kooperatsiyani rivojlantiruvchi hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi investitsiya loyihalariga ustuvorlik berish maqsadga muvofiqdir.

Beshinchidan, ichki investitsion resurslarni safarbar etish imkoniyatlarini kengaytirish uchun moliyaviy bozorlarni rivojlantirish, uzoq muddatli moliyalashtirish instrumentlarini joriy etish hamda institutsional investorlar rolini kuchaytirish zarur. Pensiya jamg'armalari, sug'urta kompaniyalari va investitsiya fondlarining real sektor loyihalarida ishtirokini rag'batlantirish investitsiya siyosatining moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi.

Oltinchidan, hududiy investitsiya siyosatini faollashtirish orqali mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish lozim. Har bir hududning tabiiy, mehnat va infratuzilma salohiyatini hisobga olgan holda hududiy investitsiya dasturlarini ishlab chiqish hamda mahalliy hokimiyat organlarining investitsiya jarayonlaridagi mas'uliyatini kuchaytirish investitsiya faolligining hududlar bo'yicha muvozanatli o'sishini ta'minlaydi.

Yettinchidan, investitsiya siyosatining shaffofligi va hisobdorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat investitsiya dasturlari, imtiyozlar va qo'llab-quvvatlash choralariga oid ochiq axborot bazalarini rivojlantirish, jamoatchilik va ekspertlar ishtirokida baholash mexanizmlarini joriy etish investitsiya siyosatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Taklif etilgan yo'nalishlarni amaliyotga joriy etish investitsion resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, iqtisodiyotni strukturaviy modernizatsiyalashni jadallashtirish hamda O'zbekistonning uzoq muddatli barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida" O'RQ-598-son Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-4664142?ONDATE=22.02.2024%2000>
3. Solow R.M. (1956). A contribution to the theory of economic growth. The Quarterly Journal of Economics, 70(1), 65-94.
4. North D.C. (1990). Institutions, institutional change and economic performance. Cambridge: Cambridge University Press, pp. 3-10, 54-61.
5. Dunning J.H. (1993). Multinational enterprises and the global economy. Reading, MA: Addison-Wesley, pp. 79-85, 131-137.
6. Polterovich V.M. (2008). Institutional traps and economic reforms. Economics of Transition, 8(1), 1-29.
7. Stiglitz J.E., Lin J.Y. & Patel E. (2013). The industrial policy revolution I: The role of government beyond ideology. Palgrave Macmillan, pp. 1-45.
8. Islomov B.T. & Tursunov B.O. (2020). O'zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilash va xorijiy investitsiyalarni jalb etish omillari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 4, 45-54.
9. Karimov A.M. (2021). Davlat investitsiya dasturlarining iqtisodiy samaradorligini baholash masalalari. Iqtisodiy tahlil va prognozlash, 2, 67-75.
10. Abdurahmonov Q.H. (2022). Hududiy investitsiya siyosatini takomillashtirishning institutsional asoslari. Mintaqaviy iqtisodiyot, 1, 23-32.
11. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Rasmiy statistik ma'lumotlar.
12. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi. Investorlar huquqlarini himoya qilish va imtiyozlar to'g'risidagi rasmiy ma'lumotlar. URL: <https://davaktiv.uz/uz/menu/pravovaja-zaschita-i-igoty-investorov>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
